



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 03 | pp. 146-160 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

BANK KAPITALINI BOSHQARISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBASI

Yodgorov Mansur Nabievich

Tashkent International University mustaqil tadqiqotchisi



Annotatsiya: Ushbu maqolada bank kapitalini boshqarishning xalqaro tajribasi qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqotda Basel III standartlarining joriy etilishi, Yevropa Markaziy Banki (YeMB) nazorat amaliyoti, AQSh Federal Rezerv tizimining kapital tartibga solish yondashuvlari va bir qator rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi qiyosiy-tahliliy usulda o'rganilgan. Metodologik jihatdan ko'ndalanma kesishgan tadqiqot (cross-sectional study) yondashuvi va 2010–2025 yillarni qamrab olgan retrospektiv tahlildan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'ylab "Group 1" banklarining o'rtacha CET1 koeffitsiyenti 14,0% ni tashkil etmoqda, Yevropa banklari esa eng yuqori kapital darajasiga (15,2%) erishgan. Banklarning kapitalga moslashish tezligi taxminan 2 yilni tashkil etishi aniqlangan. Xulosa sifatida O'zbekiston bank tizimini takomillashtirish uchun faqat kapital talablarini oshirish bilan cheklanmaslik, balki bir vaqtda nazorat sifatini yaxshilash, kapital bozorlarini rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va antisiklik kapital buferlari (CCyB) mexanizmini faol qo'llash zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: bank kapitali barqarorligi, kredit riski, moliyaviy risk, kapital adekvatligi, muammoli kreditlar (NPL), Basel III standartlari, stress-test, likvidlik koeffitsienti (LCR, NSFR), leveraj sikli, makroprudensial tartibga solish.

Abstract: This article presents a comprehensive comparative analysis of international practices in bank capital management. The study examines the implementation of Basel III standards, the supervisory practices of the European Central Bank (ECB), the capital regulation approaches of the US Federal Reserve System, and the experiences of several developed and developing countries. Methodologically, the research employs a cross-sectional study design based on 2025–2026 data alongside a retrospective analysis covering the period from 2010 to 2025. The findings indicate that the average CET1 ratio of Group 1 banks globally stands at 14.0%, with European banks achieving the highest capital adequacy levels at 15.2%. The average capital adjustment speed of banks was found to be approximately 2 years. The article concludes that for the Uzbek banking system, raising capital requirements alone is insufficient; simultaneous improvements in supervisory quality, development of capital markets, ensuring macroeconomic stability, and the active application of countercyclical capital buffers (CCyB) are essential for sustainable banking sector development.

Keywords: bank capital stability, credit risk, financial risk, capital adequacy ratio, non-performing loans (NPL), Basel III standards, stress testing, liquidity coverage ratio (LCR, NSFR), leverage cycle, macroprudential regulation.

KIRISH

Zamonaviy bank tizimi barqarorligi global iqtisodiyot stabiligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. 2007-2009 yillarda sodir bo'lgan jahon moliyaviy inqirozi bank kapitalini samarali boshqarishning strategik ahamiyatini yanada oshirib yubordi. Inqiroz oqibatida ko'plab yetakchi iqtisodiyotlar bank tizimini saqlab qolish uchun trillionlab dollar miqdoridagi davlat qo'llab-quvvatlashiga majbur bo'ldilar. Bu voqealar xalqaro moliyaviy jamoatchilikni bank kapitali tartibga solish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishga undadi.

Moliyaviy inqiroz oldidan mavjud bo'lgan Basel II standartlari bank kapitalining miqdori va sifatini ta'minlashda yetarli emasligi ma'lum bo'ldi. Banklar yuqori darajada leveraj qilingan aktivlarga ega bo'lib, kapital buferlari inqiroz sharoitidagi zararlarni qoplash uchun kifoya qilmadi. Shuningdek, likvidlik menejmenti zaifligi, tizimli xavflarni baholashdagi kamchiliklar va risk-menejment tizimlarining noadekvatligi kuzatildi. Natijada, Basel Qo'mitasi tomonidan Basel III deb nomlangan yangi standartlar paketi ishlab chiqildi va xalqaro miqyosda joriy qilinishga kirishildi.

Ushbu tadqiqot ishida xalqaro bank kapitalini boshqarish amaliyotining eng samarali tomonlari batafsil tahlil qilamiz. Tadqiqotning asosiy maqsadi xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqur o'rganish, ularning muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklarini aniqlash hamda O'zbekiston bank tizimi uchun amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot Basel III standartlarining joriy qilinishidan boshlab, Yevropa Markaziy Banki (ETsB) nazorat amaliyoti, AQSh Federal Rezerv tizimining kapital tartibga solish yondashuvlari va boshqa rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini qamrab oladi.

Tadqiqot dolzarbligini asoslash uchun bir necha asosiy omillarni ta'kidlash zarur. Birinchidan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli bank sektori islohotlari xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zaruriyati mavjud. Ikkinchidan, mamlakat iqtisodiyotining tez sur'atlarda rivojlanishi, xususi sektor kreditlashning o'sishi va moliyaviy bozorlarning chuqurlashuvi bank tizimiga qo'yiladigan talablarni yanada oshirayotgan. Uchinchidan, global iqtisodiy noaniqliklar, geosiyosiy xavflar va iqlim o'zgarishlari kabi zamonaviy tahdidlar bank kapitalini boshqarishga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda.

Bank kapitalini boshqarish bo'yicha xorij tajribasini tadqiqot qilishdan maqsad birinchidan Basel III standartlarining xorijiy mamlakatlarda joriy qilinishining hozirgi holatini va samaradorligini baholash. Ikkinchi maqsad - Yevropa, Amerika va boshqa mintaqalarda kapital talablari, nazorat usullari va stress-testlar amaliyotini chuqur tahlil qilish. Uchinch maqsad - banklar kapital strukturasiga tezkor moslanish mexanizmlari va unga ta'sir qiluvchi institutsional omillarni aniqlash. To'rtinchi maqsad - O'zbekiston uchun bosqichma-bosqich joriy qilinishi mumkin bo'lgan amaliy takliflar tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot dizayni bo'yicha biz ko'nd alanma kesishgan tadqiqot (cross-sectional study) yondashuvini qo'lladik, unda turli mamlakatlar va mintaqalarning 2025-2026 yillar ma'lumotlari qiyoslashtiriladi. Shuningdek, dinamik jihatlarni o'rganish uchun retrospektiv tahlil ham amalga oshirildi, bu inqirozdan keyingi davrda (2010-2025 yillar) kapital ko'rsatkichlarining o'zgarishini kuzatish imkonini beradi. Tadqiqotning asosiy

fokusi xalqaro tajribani sistematik ravishda tahlil qilish va O'zbekiston uchun amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan. Biz dedukativ yondashuvdan foydalanib, umumiy nazariy asoslardan (Basel standartlari, kapital menejmenti nazariyalari) boshlab, konkret mamlakatlar amaliyotiga o'tdik va oxirida O'zbekistonga moslashtirilgan takliflarni shakllantirdik.

ADABIYOTLAR SHARHI

Rivojlangan mamlakatlarda bank kapitali barqarorligini ta'minlash masalasi ko'p qirrali yondashuvlarda o'rganilgan. Anat Admati va Martin Hellwig (2013, 2019) larning tadqiqotlari bank kapitali siyosatini tanqidiy qayta ko'rib chiqishga bag'ishlangan bo'lib, ularning fikricha, hozirgi kapital talablari hali ham yetarli emas va banklar jamiyat uchun tizimli xavf tug'diradigan darajada past kapitalga ega. Olimlarning asosiy tezisi shundan iboratki, banklarning kapital nisbatlari 20-30% ga yetishi kerak, chunki bu bank tizimi barqarorligini ta'minlab, moliyaviy inqirozlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Admati va Hellwig (2019) o'z keyingi ishlarida banklar kapital qimmatligi haqidagi da'volarini tanqid qilib, yuqori kapital talablarining iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmasligini empirik dalillar bilan isbotladilar.

Viral Acharya, Hamid Mehran va Anjan Thakor (2016) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot bank kapitali tartibga solish siyosatining ikki tomonlama xavfini tahlil qiladi: bir tomondan, past kapital talablari banklarni ortiqcha xavf olishga undaydi (risk siljishi muammosi), ikkinchi tomondan, xaddan tashqari yuqori talablar banklarni qoidalarni aylanib o'tish ("rent seeking" xulqi) ga majbur qilishi mumkin. Olimlar optimal kapital tartibga solishning bu ikki muammoni balanslastirish imkonini beradigan darajada bo'lishi zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning 2016 yilgi ishlarida ishlab chiqilgan model supervizorlarga bank kapitali talablarini banklarning biznes modeli, xavf profili va bozor sharoitlariga mos ravishda differentsial belgilash tavsiyalarini beradi.

Allen Berger va Christa Bouwman (2013) ning uzoq muddatli tadqiqotlari bank kapitalining moliyaviy inqirozlar davridagi roli va bank faoliyatiga ta'sirini batafsil o'rgangan. Berger va Bouwman AQSh banklari 1984-2010 yillar ma'lumotlari asosida shuni aniqladilarki, yuqori kapital nisbatiga ega banklar inqiroz davrlarida ancha yaxshi natijalar ko'rsatadilar: ular kredit berish hajmlarini saqlab qoladilar, depozitlar chiqib ketishini kamaytiradilar va bankrotlik ehtimoli pastroq bo'ladi. Shuningdek, ular bank kapitalining likvidlik yaratish funktsiyasi bilan bog'liqligini o'rganib, kapital buferlarining banklar uchun strategik qiymati borligini isbotladilar. Ularning xulosalariga ko'ra, kapital faqat zararlarni yutalish uchun emas, balki bankning bozordagi raqobatchi pozitsiyasini kuchaytirish va o'sish imkoniyatlarini ta'minlash uchun ham muhim.

Samuel Hanson, Anil Kashyap va Jeremy Stein (2011, 2018) makroprudentsial tartibga solish doirasida bank kapitali barqarorligini tahlil qilishgan. Ularning ishida makroprudentsial yondashuvning asosiy printsiplari shakllantirilgan. Xususan, kapital talablari nafaqat mikroprudentsial maqsadlarga, balki makroprudentsial maqsadlarga ham xizmat qilishi kerak. Olimlar prokursiklik muammosini yechish uchun antisikl kapital buferlarini kiritish zarurligini asoslagan holda, iqtisodiy bum davrlarida banklar qo'shimcha kapital to'plashlari, retsessiya paytida esa bu buferlarni ishlatishlari mumkinligini ko'rsatadilar. Hanson, Kashyap va Stein (2018) ning keyingi ishlarida tizimli ahamiyatga ega banklar uchun qo'shimcha kapital talablarini ilmiy asoslash masalasi

ko'rib chiqilgan va bu banklarning tizimli xavfqa qo'shgan hissasiga mutanosib bo'lishi kerakligi isbotlangan.

Olivier De Jonghe va Özde Öztekin (2015) ning xalqaro qiyosiy tadqiqotlari bank kapitali menejmentining dinamik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ularning ishida 1994-2010 yillar oralig'idagi 64 mamlakat banklari ma'lumotlari asosida banklarning kapital strukturasi moslashish mexanizmlari tahlil qilingan va mamlakatlarga moslashuv tezligi farqlariga ta'sir etuvchi institutsional omillar aniqlangan. Tadqiqotchilar ko'rsatishganidaki, qattiq kapital talablari, yaxshi nazorat, rivojlangan kapital bozorlari va past inflyatsiya banklarning maqsadli kapital darajasiga tezroq moslashishiga yordam beradi. De Jonghe va Öztekin (2015) ning keyingi ishlarida panel ma'lumotlari ekonometriyasi usullaridan foydalanib, bank kapitali moslashuvining geterogenligi chuqurroq o'rganilgan va turli bank biznes modellari (transformatsion vs savdo-orientlangan) uchun optimal kapital strategiyalari farqlanishi isbotlangan.

Tobias Adrian va Hyun Song Shin (2014, 2019) ning tadqiqotlari bank leveraj dinamikasi va moliyaviy tsikllarga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Adrian va Shin (2010) da ishlab chiqilgan "leveraj tsikli" kontseptsiyasi zamonaviy moliyaviy makroiqtisodiyotda keng qo'llanilmoqda: banklar balanslari kengayganda leverajni oshiradi lar (aktivlar bahosi o'sganda), balanslari qisqarganda esa deleveraj qiladilar, bu moliyaviy tsikllarni kuchaytiradi. 2014 yilgi ishlarida mualliflar bank kapitali tartibga solish siyosatining prokursiklikni kamaytirishdagi rolini tahlil qilib, makroprudentsial vositalar (antisikl buferlar, leveraj cheklovi) samaradorligini baholaydilar. Shuningdek, ular tadqiqotlarida sun'iy intellekt va mashina o'rganish usullaridan foydalanib, bank kapitali taqsimotining tizimli xavfqa ta'siri prognozlashtirish modeli ishlab chiqilgan.

Mathias Drehmann va Kostas Tsatsaronis (2014, 2020) antisikl kapital buferlarining kalibrovkasi masalasini chuqur o'rganganlar. Ular CCyB ni belgilash uchun kredit/YaIM nisbatining uzoq muddatli trendidan chetlanish indikatorini qo'llash metodologiyasini asoslaganlar. Shuningdek, ular ilmiy ishlarida mashina o'rganish algoritmlari yordamida kredit tsikllarini bashorat qilish va CCyB ni proaktiv belgilash imkoniyatlari o'rganilgan. Tadqiqotchilar ko'rsatishganidaki, CCyB samaradorligi uning vaqtida va yetarli miqdorda faollashtirilishiga bog'liq, ammo ko'pgina mamlakatlar hali ham bu vositani yetarlicha ishlatmayotganlar.

Reint Gropp va Florian Heider (2010, 2018) ning tadqiqotlari bank kapital strukturasi determinantlarini Yevropa kontekstida tahlil qiladi. Ular tadqiqotlarini banklar kapital strukturasi korporativ moliya nazariyalari (savdo nazariyasi, iyerarxiya nazariyasi) bilan ham izohlanishi mumkin, ammo tartibga solish va bank depozitlari sug'urtasi kabi institutsional omillar muhim rol o'ynaydi. Ularning ishlarida Yevropa Markaziy bankii yaratilganidan keyingi davr o'rganilgan va nazoratning markazlashuvi banklarning kapital siyosatiga ta'siri baholangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yagona nazorat mexanizmi banklarning kapital darajasini garmonizatsiyalashga yordam berdi, ammo milliy tafovutlar hali ham saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma'lumotlar manbalari bo'yicha biz ikki darajali yondashuvni qo'lladik: birlamchi va ikkilamchi manbalar. Birlamchi manbalar sifatida xalqaro moliyaviy tashkilotlarning rasmiy hisobotlari va statistik ma'lumotlari xizmat qildi. Bular quyidagilarni o'z ichiga

oladi: Bank for International Settlements (BIS) tomonidan chop etiladigan Basel III monitoring hisobotlari, Yevropa Markaziy Banki (ETsB) nazorat statistikasi va SREP natijalari, AQSh Federal Rezerv tizimi press-relizlari va regulativ hujjatlari, Yevropa Bank Agentligi (EBA) stress-test natijalari, xalqaro tijorat banklarining chorak va yillik hisobotlari. Ikkilamchi manbalar sifatida mavzu bo'yicha ilmiy maqolalar, monografiyalar, konferentsiya materiallari va analitik hisobotlar ishlatildi. Adabiyotlarni izlashda biz Google Scholar, Web of Science, Scopus, ResearchGate va SSRN kabi ilmiy ma'lumot bazalaridan foydalandik.

Ma'lumotlar yig'ish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda biz Basel III standartlariga oid rasmiy hujjatlarni va metodologik ko'rsatmalarni yig'dik. Ikkinchi bosqichda turli mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha eng so'nggi kapital ko'rsatkichlari, stress-test natijalari va nazorat chora-tadbirlari haqida ma'lumotlar to'plandik. Uchinchi bosqichda ekonometrik tadqiqotlar (masalan, De Jonghe va Öztekin, 2015) natijalari va ulardagi statistik ko'rsatkichlar ekstraksiya qilindi. To'rtinchi bosqichda bank kapitali dinamikasi bo'yicha vaqt qatorlari ma'lumotlari (2010-2025 yillar) sistemalashtirildi. Ma'lumotlar yig'ish jarayonida biz rasmiy statistika manbalariga ustuvorlik berdik, chunki ular yuqori darajada ishonchlilik va takrorlanuvchanlik xususiyatlariga ega.

Tahlil usullari bo'yicha biz quyidagi metodlardan foydalandik. Deskriptiv statistika usullari yordamida turli mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha kapital ko'rsatkichlarining markaziy tendentsiyasi (o'rtacha, mediana) va tarqalishi (standart chetlanish, minimum-maksimum) hisoblandi. Qiyosiy tahlil metodi Yevropa, Amerika, Osiyo va boshqa mintaqalarning kapital menejmenti amaliyotini qiyoslash uchun qo'llandi. Kontent-tahlil regulativ hujjatlar, nazorat hisobotlari va bank strategik rejalarining mazmunini tizimli ravishda tahlil qilish uchun ishlatildi. Trendlarni aniqlash usullari vaqt bo'ylab kapital ko'rsatkichlarining o'zgarishini va ularning yo'nalishini baholash imkonini berdi. Keystadi yondashuvi konkret mamlakatlar (Evropa Ittifoqi, AQSh) va yirik banklar tajribasini chuqur o'rganish uchun qo'llandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kapital yetarliligi ko'rsatkichlarini tahlil qilishda biz Basel III tizimiga muvofiq quyidagi asosiy metrikalarni hisobga oldik. Common Equity Tier 1 (CET1) koeffitsiyenti eng yuqori sifatli kapitalning xavfga tortilgan aktivlarga nisbati sifatida aniqlanadi va Basel III bo'yicha kamida 4.5% bo'lishi kerak. Umumiy Tier 1 koeffitsiyenti CET1 va qo'shimcha Tier 1 kapitalini o'z ichiga olib, minimal talab 6% ni tashkil etadi. Umumiy kapital koeffitsiyenti barcha toifadagi kapitalni qamrab olib, kamida 8% darajasida bo'lishi shart. Leveraj koeffitsiyenti Tier 1 kapitalning umumiy aktivlarga nisbati bo'lib, risk vaznlaridan qat'i nazar kapital barqarorligini baholaydi va minimal talab 3% ga teng. Bufer talablari kapital konservatsiyasi (2.5%), kontrtsikl (0-2.5%) va tizimli buferlarni (0-3.5% va undan ortiq) o'z ichiga oladi.

Likvidlik ko'rsatkichlari bo'yicha biz Basel III ning ikki asosiy metrikasini tahlil qildik. Likvidlik qoplash koeffitsiyenti (LCR) yuqori sifatli likvid aktivlarning 30 kunlik stress stsenariydagi suyuq chiqishlarga nisbati sifatida hisoblanadi va minimal 100% bo'lishi kerak. Barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR) mavjud barqaror moliyalashtirishning bir yillik gorizontda zarur barqaror moliyalashtirishga nisbati bo'lib,

minimal talab 100% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlarning dinamikasini kuzatish bank tizimining qisqa va uzoq muddatli likvidlik barqarorligini baholashga imkon beradi.

Nazorat amaliyotini tahlil qilishda biz Yevropa Markaziy Banki tomonidan qo'llaniladigan SREP (Supervisory Review and Evaluation Process) metodologiyasidan foydalandik. SREP baxolash to'rt asosiy elementni qamrab oladi: biznes modelining barqarorligi (1 dan 4 gacha baho), ichki boshqaruv va risk-menejment sifati (1-4 baho), kapitalga xavflar (kapital yetarliligi tahlili), likvidlik va moliyalashtirishga xavflar (likvidlik barqarorligi bahosi). Umumiy SREP bahosi bu to'rt komponentning agregatsiyasi natijasida shakllanadi va supervizorlar tomonidan Pillar 2 qo'shimchalarini belgilashda qo'llaniladi.

Stress-testlar tahlili metodologiyasi Yevropa (EBA) va AQSh (CCAR, DFAST) amaliyotiga asoslanadi. Biz stress-testlarning uch asosiy komponentini ko'rib chiqdik: bazaviy stsenariy (eng ehtimolli makroiqtisodiy rivojlanish yo'li), qisman qarindosh stsenariy (o'rtacha darajadagi iqtisodiy shok), va qattiq stress stsenariy (kuchli retsessiya, moliyaviy bozorlar kolla psi, aktivlar bahosining keskin pasayishi). Har bir stsenariy uchun biz kapital deplyatsiyasi (kamayishi), CET1 koeffitsiyentining eng past nuqtasi, va stress ostidagi barqarorlik ko'rsatkichlarini tahlil qildik.

Banklarning kapital strukturasiga moslashish dinamikasini o'rganishda biz De Jonghe va Öztekin (2015) tomonidan ishlab chiqilgan qisman moslashuv (partial adjustment) modelidan metodologik jihatdan foydalandik. Bu model banklarning maqsadli kapital strukturasiga erishish tezligini baholaydi.

Biz xorijiy mamlakatlarda bank kapitalini boshqarish amaliyotining hozirgi holatini batafsil tahlil qilamiz. Tahlil uch asosiy qismga bo'linadi: Basel III standartlarining joriy qilinishi va ta'siri, mintaqaviy qiyosiy tahlil, va kapital menejmenti dinamikasi. Har bir qism statistik jadvallar va empirik dalillar bilan ilustratsiya qilinadi.

Basel III standartlarining joriy qilinishi: global xolat

Bank for International Settlements tomonidan 2025 yil noyabrida chop etilgan monitoring hisoboti shuni ko'rsatdiki, jahon miqyosida banklar Basel III standartlariga moslashishda sezilarli progressga erishganlar. 2024 yil dekabr holatiga ko'ra 176 ta xalqaro faol bank (shu jumladan 116 ta Group 1 banklari va 59 ta Group 2 banklari) ma'lumotlari tahlil qilingan. Group 1 banklari deganda Tier 1 kapitali 3 milliard yevrodan ortiq bo'lgan va xalqaro faoliyatda bo'lgan banklar tushuniladi, qolganlari Group 2 deb tasniflanadi. Tahlil natijalari Group 1 banklarining o'rtacha CET1 koeffitsiyenti 14.0% ni tashkil etishini ko'rsatdi, bu oldingi yarim yilga nisbatan 0.6 foiz punktga oshgan. Bu o'sish asosan kapitalning xavfga tortilgan aktivlardan ko'ra ko'proq darajada o'sishi bilan izohlanadi.

Basel III ning to'liq joriy qilinishi banklarning minimal zarur kapitaliga (Minimum Required Capital, MRC) ta'sirini baholash muhim natijalarni berdi. Group 1 banklari uchun Basel III standartlarining to'liq amalga kiritilishi Tier 1 kapitaliga 1.4% ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda. Bu ta'sir risk-asosli talablarning 2.7% oshishi va leveraj koeffitsiyenti talablarning 1.4% kamayishining netto natijasidir. Risk-asosli komponentlar ichida eng katta ta'sirga ega bo'lgan omillar quyidagilar: output floor (chiqish pasti) +1.7%, bozor xavfi +1.2%, kredit xavfi +0.5%. Output floor mexanizmi bu banklarning ichki modellari orqali hisoblangan xavfga tortilgan aktivlarining standartlashtirilgan

yondashuv bo'yicha hisoblangan qiymatning 72.5% dan kam bo'lmasligini ta'minlaydi. Bu banklarning risk vaznlarini xaddan tashqari kamaytirish imkonini cheklaydi.

Qiziqarli jihat shundaki, Basel III ta'siri mintaqalar kesimida jiddiy farq qiladi. Yevropa banklari uchun Tier 1 kapitaliga ta'sir 2.5% ni tashkil etib, global o'rtacha ko'rsatkichdan deyarli ikki barobar yuqori. Amerika banklari uchun ta'sir 0.9%, dunyoning qolgan qismi uchun esa 1.1% deb baholangan. Bu mintaqaviy farqlar bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, Yevropa banklari tarixiy jihatdan ichki modellardan kengroq foydalanganlar va output floor ularga nisbatan kattaroq cheklov bo'ladi. Ikkinchidan, bozor xavfi hisob-kitoblari bo'yicha yangi FRTB (Fundamental Review of the Trading Book) standartlari Yevropa banklarining savdo portfellariga yuqoriroq kapital talabi qo'yadi. Uchinchidan, Amerika banklari allaqachon nisbatan konservativ leveraj koeffitsiyentiga ega bo'lib, qo'shimcha yuk kamroq.

Group 2 banklari, ya'ni kichik va o'rta hajmdagi banklar uchun Basel III ta'siri 1.3% ni tashkil etish i kutilmoqda. Ular uchun ham risk-asosli o'lchovning 4.7% oshishi (asosan output floor +3.0% va kredit xavfi +0.8% hisob iga) va leveraj koeffitsiyenti talabining 3.5% kamayishi kuzatiladi. Group 2 banklariga output floor ning kattaroq ta'siri ularning kapital hisob-kitoblarida standartlashtirilgan yondashuvdan ko'proq foydalanishlari va ichki modellar infrastrukturasi kamroq rivojlanganligi bilan bog'liq.

Kapital yetarliligining hozirgi darajasi bo'yicha olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, barcha Group 1 banklari va Group 2 banklari 2024 yil dekabr xolatida regulativ kapital yetishmovchiligiga duch kelmaganlar. Bu juda muhim natija bo'lib, bank tizimining barqarorligini tasdiqlaydi. 2024 yil ikkinchi yarmida hech bir bankda kapital defisiti (etishmovchiligi) qayd etilmagan, ol dingi davrda bu juda kichik miqdorda mavjud edi. Global tizimli ahamiyatga ega banklar (G-SIBs) uchun ham holat ijobiy: Tier 1 kapitaliga ta'sir atigi 0.4% ga teng, bu ular ni 2023 yilga nisbatan yanada mustahkamlanganligini ko'rsatadi.

Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Yevropa banklari hozirda eng yuqori CET1 koeffitsiyentiga (15.2%) ega, ammo ular Basel III ning to'liq joriy qilinishidan eng katta ta'sirga duch keladilar (+2.5%). Amerika banklari nisbatan past CET1 ga (13.5%) ega, lekin Basel III ta'siri ularga kamroq (+0.9%). Bu banklarning kapital menejmenti strategiyasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin: Yevropa banklari qo'shimcha kapital jalb qilishi yoki aktivlar portfelini optimallashtirishi kerak bo'ladi, Amerika banklari esa nisbatan kamroq moslashuvga muhtoj.

1-jadval

Basel III ta'siri: mintaqaviy qiyoslash (2024 yil dekabr ma'lumotlari)¹

Ko'rsatkich	Group 1 (umumiy)	Yevropa	Amerika	Boshqa mintaqalar	G-SIBs
Hozirgi CET1 koeffitsiyent (%)	14.0	15.2	13.5	14.8	13.8
Tier 1 kapitaliga Basel III ta'siri (%)	+1.4	+2.5	+0.9	+1.1	+0.4
Risk-asosli komponent ta'siri (%)	+2.7	+3.8	+2.2	+2.5	+2.1
Output floor ta'siri (%)	+1.7	+2.4	+1.2	+1.5	+1.3
Bozor xavfi ta'siri (%)	+1.2	+1.7	+0.9	+1.0	+0.9

¹ BIS Basel III Monitoring Report, Dekabr 2024

Kredit xavfi ta'siri (%)	+0.5	+0.6	+0.4	+0.5	+0.3
Leveraj koeffitsiyenti ta'siri (%)	-1.4	-1.3	-1.3	-1.4	-1.7
Kapital yetishmovchiligi (mlrd yevro)	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0

Leveraj koeffitsiyenti dinamikasi ham qiziqarli natijalarni ko'rsatadi. 2024 yil dekabr xolatiga ko'ra Group 1 banklarining o'rtacha leveraj koeffitsiyenti barqaror bo'lib qoldi, ammo mintaqalar bo'yicha farqlar kuzatiladi. Yevropada leveraj koeffitsiyenti 5.1%, Amerikada 5.8%, dunyoning boshqa qismlarida 7.1% ni tashkil etadi. Amerikadagi yuqoriroq leveraj koeffitsiyenti bu mintaqada regulativ talablarning tarixan qattiqroq bo'lganligi va banklarning konservativ kapital siyosati bilan bog'liq. Yevropa banklarining nisbatan past leveraj koeffitsiyenti ularning katta balans hajmi va aktiv larning yuqori darajada leveraj qilinganligini aks ettiradi.

Yevropa Markaziy Banki nazoratsi: SREP natijalari

Yevropa Markaziy Banki tomonidan 2025 yil noyabrda e'lon qilingan SREP natijalari 105 ta to'g'ridan to'g'ri nazorat ostidagi bankni qamrab oladi va ularning kapital xolati, likvidligi, rentabelligi va boshqaruv sifati bo'yicha kompleks baho beradi. 2025 yilgi SREP tsiklidagi o'rtacha umumiy baho 2.5 ni tashkil etdi, bu oldingi yilga nisbatan ozgina yaxshilanganligi (2024 yilda 2.6) ko'rsatadi. SREP baholarining taqsimlanishi shuni ko'rsatdiki, banklarning uchdan bir qismi hali ham eng zaif toifalarda (baholar 3-4) qolmoqda, bu supervizorlar tomonidan qo'shimcha e'tibor talab qiladi.

Miqdoriy talablar bo'yicha, 2026 yilda amal qiladigan umumiy CET1 kapital talabi va yo'riqnomalari 11.2% darajasida barqaror qoldi. Bu raqam quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: Pillar 1 bazaviy talab 4.5%, Pillar 2 Requirement (P2R) 1.2%, kombinatsiyalangan bufer talablari o'rtacha 4.4%, Pillar 2 Guidance (P2G) 1.1%. Jiddiy ahamiyatga ega jihat shundaki, majburiy bo'lmagan P2G 2025 yilga nisbatan 1.3% dan 1.1% ga pasaydi. Bu kamayish 2025 yilgi Yevropa miqyosida gi stress-test natijalari bilan bog'liq: stress ostida banklar yuqoriroq zararlarni ko'rsatganlar, ammo ular o'z kapitali bilan bu zararlarni qoplash qobiliyati yaxshilangan. Yuqori foyda darajasi natijasida kapital deplyatsiyasi kamaygan va shuning uchun supervizorlar kapital buferlarining ozroq qismini P2G sifatida belgilashga qaror qilganlar.

Banklarning hozirgi kapital xolati juda barqaror: 2025 yil ikkinchi chorakda o'rtacha CET1 koeffitsiyenti 16.1% ni tashkil etdi, bu minimal talabdan (11.2%) sezilarli darajada yuqori. Leveraj koeffitsiyenti 5.9% da turdi, umumiy kapital koeffitsiyenti esa 20.2% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar Yevropa bank tizimining inqiroz yoki makroiqtisodiy shoklarga chidamliligini tasdiqlaydi. Mamlakatlar kesimida CET1 koeffitsiyenti jiddiy farqlanadi: Ispaniyada 13.28%, Litvada esa 23.12%, bu milliy iqtisodiy sharoitlar, bank tizimining strukturasi va regulativ yondashuvlarning turliligini aks ettiradi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari Yevropa banklarining barqaror kapital bazasiga ega ekanligini tasdiqlaydi. CET1 koeffitsiyenti bir yil davomida 0.37 foiz punktga oshdi, bu banklarning foyda saqlash va kapital jalb qilish orqali kapital bazasini mustahkamlashdavom ettirishini ko'rsatadi. Likvidlik ko'rsatkichlari ham yuqori darajada: LCR 156.73% va NSFR 127% da turdi, bu minimal 100% talabidan ancha yuqori. LCR ning ozgina pasayishi (158.50% dan 156.73% ga) asosan suyuq chiqishlarning oshishi bilan bog'liq, ammo hali ham banklarning qisqa muddatli likvidlik barqarorligi yuqori.

2-jadval

Yevropa banklarining kapital va likvidlik ko'rsatkichlari (2025 yil)²

Ko'rsatkich	2024-Q3	2025-Q2	2025-Q3	O'zgarish (yillik)
CET1 ko'effitsiyenti (%)	15.73	16.12	16.10	+0.37 п.п.
Tier 1 ko'effitsiyenti (%)	17.22	17.62	17.59	+0.37 п.п.
Umumiy kapital ko'effitsiyenti (%)	19.89	20.24	20.24	+0.35 п.п.
Leveraj ko'effitsiyenti (%)	5.76	5.92	5.90	+0.14 п.п.
LCR (likvidlik qoplash ko'effitsiyenti, %)	158.50	157.88	156.73	-1.77 п.п.
NSFR (barqaror moliyalashtirish ko'effitsiyenti, %)	~126	~127	~127	+1 п.п.
ROE (aksioner kapitaliga qaytim, yillik, %)	10.09	10.11	9.88	-0.21 п.п.
NPL ko'effitsiyenti (%)	2.31	2.22	2.22	-0.09 п.п.
Stage 2 kreditlar ulushi (%)	9.60	9.59	9.49	-0.11 п.п.

Rentabellik ko'rsatkichlari nisbatan barqaror: aksioner kapitaliga qaytim (ROE) 9.88% ni tashkil etdi, bu oldingi chorakdan ozroq pasaygan (10.11% dan), ammo hali ham banklar uchun muqobil sarmoyalardan yuqori daromad kel tirishini tasdiqlaydi. Mamlakatlar bo'yicha ROE juda farqlanadi: Frantsiyadan 6.82% dan Litvada 16.66% gacha. Bu farqlar bank biznes modellari turliligi, raqobat darajasi, foiz stavkalari muhiti va soliqlik rejimlari bilan izohlanadi. Umuman olganda, Yevropa banklari yuqori kapital buferlari tufayli moliyaviy stabillikni saqlab qolayotganlar, garchand rentabellik bosimi davom etmoqda.

Aktivlar sifati bo'yicha natijalar ijobiy: muammoli kreditlar (NPL) ko'effitsiyenti 2.22% da barqaror qoldi va bir yil oldinga nisbatan 0.09 foiz punktga kamaydi. Bu yevropa banklarining kredit portfeli sifatining yaxshilanishini ko'rsatadi. Sektor bo'yicha NPL ko'rsatkichlari ham turlicha: uy xo'jaliklari kreditlari uchun 2.16%, nofinans korporatsiyalariga kreditlar uchun 3.51%, tijorat ko'chmas mulki bilan ta'minlangan kreditlar uchun 4.58%, kichik va o'rta biznes kreditlari uchun 4.88%. Stage 2 kreditlar (kredit xavfi sezilarli oshgan, ammo hali defoltga tushmagan kreditlar) ulushi 9.49% ga pasaydi, bu banklarning muammo li kreditlarni faol boshqarishdan dalolat beradi.

Sifat nazorat chora-tadbirlari bo'yicha, YeTsB 2025 yilda oldingi yilga nisbatan 30% kamroq yangi chora-tadbirlarni qo'ydi. Bu banklarning supervizorlar tomonidan aniqlangan kamchiliklarni to'g'rilashdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Chora-tadbirlar asosan quyidagi sohalarga qaratilgan: kredit xavfi (40% - kredit portfellarini monitoring qilish, konkret segmentlarni boshqarish), ichki boshqaruv (17% - boshqaruv organlarining tarkibi, korporativ idora etish sifati), kapital yetarliligi (11% - ICAAP jarayonini takomillashtirish, stress-testlar), operatsion xavf (10% - AT tizimlarining uzluksizligi, kiberxavfsizlik).

SREP jarayonining takomillashuvi samaradorlikni oshirishga qaratilgan. 2025 yilda oxirgi SREP qarorlari banklarga oktyabr oxirida topshirildi, bu oldingi tsikllarga nisbatan bir oydan ortiq erta. Yangi SREP qarorlari qisqaroq va asosiy miqdoriy hamda sifat talablariga, SREP ning asosiy natijalariga va supervizorlarning asosiy tashvishlariga qaratilgan. 2026 yildan boshlab Pillar 2 Requirement hisoblash uchun yangi, shaffofroq va

² ECB Superviziya statistikasi, 2025 yil dekabr

soddalashtirilgan metodologiya amalga kiritiladi, bu banklar uchun tushunish va rejalashtirish osonroq bo'ladi.

AQSh Federal Rezerv tizimi: kapital tartibga solishning yangi yondashuvlari

Amerika Qo'shma Shtatlarida bank kapitalini tartibga solish tizimi o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, u Enhanced Supplementary Leverage Ratio (eSLR), Comprehensive Capital Analysis and Review (CCAR) va stress-testlarga asoslangan. 2025 yil noyabr oxirida Federal agentliklar (Federal Rezerv, FDIC, OCC) kapital standartlarini o'zgartirish bo'yicha yakuniy qoidani e'lon qildilar, bu 2026 yil 1 apreldan kuchga kiradi. Bu o'zgarishlarning asosiy maqsadi yirik va tizimli ahamiyatga ega banklarning past xavfli faoliyat turlari (masalan, AQSh xazina qog'ozlari bilan operatsiyalar) bilan shug'ullanishiga to'siqlarni kamaytirish edi.

Yangi qoidalar bo'yicha, eSLR standarti bank xolding kompaniyalari va ularning depozit institutlari uchun har bir tashkilotning umumiy tizimli xavfiga asoslanib belgilanadi. Depozit institutlari uchun eSLR standarti 1% dan oshmasligi uchun cheklanadi, natijada bu institutlar uchun umumiy talab 4% dan oshmaydi (bazaviy 3% leveraj koeffitsiyenti + 1% eSLR). Bu o'zgarish depozit institutlarining xolding kompaniyasiga nisbatan kapital talablari va tizimli xavf profilidagi farqlarni aks ettirish uchun kiritildi. Shuningdek, bu leveraj standartining risk-asosli kapital talablariga nisbatan backstop (zax ira) funktsiyasini o'tashini, ayniqsa stress vaqtlarida, ta'minlashga yordam beradi.

Agentliklar baholasiga ko'ra, ushbu qoida natijasida banklar tomonidan saqlanadigan umumiy kapital darajasi deyarli o'zgarmaydi. Agregat holda, qoida ta'sir qilinadigan bank xolding kompaniyalari uchun Tier 1 kapital talabini 2% dan kam qisqartiradi. Depozit institutlari kamayish yuqoriroq bo'lsa-da, bu kapital odatda tashqi aktsiyadorlarga taqsimlanishi mumkin emas, chunki xolding kompaniyalar darajasida kapital cheklashlari mavjud. Banklar 2026 yil 1 yanvardan boshlab o'zgartirilgan standartlarni qo'llashni tanlash huquqiga ega, ammo majburiy amalga kiritilish 2026 yil 1 aprelda boshlanadi.

3-jadval

AQSh va Yevropa banklarini qiyoslash (2025 yil ma'lumotlari)³

Ko'rsatkich	AQSh (Group 1 banklari)	Yevropa (ECB nazorati)	Farq (AQSh - Yevropa)
O'rtacha CET1 koeffitsiyenti (%)	13.5-15.3	16.10	-0.60 / +1.20
O'rtacha Tier 1 koeffitsiyenti (%)	~14.5-16.0	17.59	-1.59 / +0.50
Leveraj koeffitsiyenti (%)	5.8	5.9	-0.1
LCR (likvidlik qoplash koeffitsiyenti, %)	~120	156.73	-36.73
Basel III ta'siri (Tier 1 kapitaliga, %)	+0.9	+2.5	-1.6
P2R / Stress buferi (o'rtacha, %)	2.5-4.0	1.2 (P2R)	+1.3
Umumiy kapital talabi (%)	~10.5-13.0	11.2	-0.7 / +1.8

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Yevropa va AQSh banklari o'rtasida kapital menejmenti yondashuvlarida sezilarli farqlar mavjud. Yevropa banklari o'rtacha yuqoriroq CET1 koeffitsiyentiga ega (16.10%), AQSh banklari esa 13.5-15.3% oralig'ida. Bu

³ BIS, ECB, FedBank, CEIC Data.

farq qisman Yevropada regulativ talablarning qattiqroq bo'lishi va stress-testlar natijalari asosida belgilangan P2G buferlari bilan izohlanadi. Biroq, Basel III ning to'liq joriy qilinishi Yevropa banklariga kattaroq ta'sir ko'rsatadi (+2.5% vs +0.9%), bu ularning kapital rejalashtirishda qo'shimcha choralarga muhtoj ekanligini ko'rsatadi.

Likvidlik bo'yicha ham jiddiy farqlar kuzatiladi. Yevropa banklarining o'rtacha LCR koeffitsiyenti 156.73% ni tashkil etsa, AQSh banklarida bu ko'rsatkich taksiminan 120% atrofida. Bu farq ikki tizimning struktural xususiyatlarini aks ettiradi: Yevropada banklar likvidlik boshqaruviga ko'proq e'tibor berishadi va markaziy banklardagi zahiralar ulushi yuqori. AQShda esa moliyaviy bozorlarning keng rivojlanganligi va Federal Rezervning likvidlik ta'minotidagi faol roli banklarga nisbatan past LCR saqlashga imkon beradi.

Stress-testlar amaliyoti ham turlicha. AQShda CCAR dasturi banklarning kapital rejalashtirishini jiddiy boshqaradi: stress-test natijalari asosida banklarga stress kapital buferi (SCB) belgilanadi, bu 2.5% dan 4.0% gacha o'zgarishi mumkin va bankning xavf profiliga bog'liq. Yevropada esa stress-testlar asosida P2G belgilanadi (o'rtacha 1.1%), bu majburiy emas, ammo banklar uni saqlashi kutiladi. CCAR ning yana bir muhim jihati shundaki, u banklarning kapital taqsimoti rejalarini (dividendlar, aktsiyalar to'lab olish) oldindan tasdiqlash mexanizmini o'z ichiga oladi, bu kapitalni bankda saqlashni ta'minlaydi.

Banklarning kapital menejmenti xulqi bo'yicha ham farqlar mavjud. AQSh banklari tarixan aksionerlarga kapital qaytarish (dividends, buybacks) bo'yicha faolroq bo'lganlar, Yevropa banklari esa foydani saqlash va kapital bazasini organik ravishda o'stirishga ustuvorlik berganlar. 2025 yilda Amerika banklarining dividend to'lash koeffitsiyenti nisbatan yuqori bo'lib qoldi, Yevropada esa supervizorlar banklarni kapitalni saqlashga undamoqdalar. Bu farqlar mintaqaviy korporativ madaniyat, aktsiyadorlarning kutishlari va regulativ muhitning turliligini aks ettiradi.

Kapital menejmenti dinamikasi: bankning moslashuv mexanizmlari

De Jonghe va Öztekin (2015) tomonidan 64 mamlakat ma'lumotlari asosida olib borilgan tadqiqot banklarning kapital strukturasiga moslashish dinamikasi bo'yicha muhim xulosalar beradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, banklar maqsadli kapital nisbatidan chetlanganda, ular turli mexanizmlar orqali moslashadilar. Kapitallsiz banklar (maqsadli darajadan past) uchun asosiy moslashuv usuli kapitalini oshirish: emissiya orqali yangi aktsiyalar chiqarish yoki foydani saqlash. Aktivlarni qisqartirish ikkinchi darajali usul hisoblanadi. Muhimi, aktivlar o'sishi sekinlashsa ham, u hali ijobiy bo'lib qoladi, ya'ni kapitallsiz banklar ham kredit berish faoliyatini to'xtatmaydilar.

4-jadval

Banklarning maqsadli kapitalga moslashuvi⁴

Bank holati	Moslashuv mexanizmi	Kapital o'zgarishi	Aktivlar o'zgarishi	Leveraj o'zgarishi
Kapitallsiz (real < maqsad)	Kapital oshirish (emissiya, foyda saqlash)	+++	+	Deleveraj (-)
Kapitallsiz (kichik)	Aktivlarni sotish + kapital	++	0 yoki -	Deleveraj (-)

⁴ De Jonghe va Öztekin (2015) tadqiqoti asosida tuzilgan

banklar)	jalb qilish			
Optimal darajada	Barqarorlikni saqlash	+	+	Barqaror (0)
Ortiqcha kapitalga ega	Aktivlar kengaytirish, dividendlar	+ yoki -	+++	Leveraj (+++)
Ortiqcha kapitalga ega (yuqori rentabellik)	Foydani aktsiyadorlarga qaytarish	-	++	Leveraj (++)

Izoh: +++ - kuchli o'sish, ++ - o'rtacha o'sish, + - kam o'sish, 0 - o'zgarmaydi, - - kamayish, -- - kuchli kamayish

Ortiqcha kapitalga ega banklar (maqsadli darajadan yuqori) uchun teskari jarayon kuzatiladi: ular leveraj oshirish uchun aktivlarni kengaytiradilar. Bunda foydani saqlash darajasi pasaydi, dividendlar va aktsiyalar to'lab olish orqali kapital aktsiyadorlarga qaytariladi. Aktivlar o'sishi esa tezlashadi. Bu xulq banklarning kapital samaradorligini optimallashtirish intilishini aks ettiradi: ortiqcha kapital ushlab rentabellikni kamaytiradi, shuning uchun banklar uni aktiv o'sishi orqali "ishlatadilar" yoki aktsiyadorlarga qaytaradilar.

Moslashuv tezligi bo'yicha tadqiqot o'rtacha 0.29 ko'rsatkichini topdi, ya'ni banklar har yili real va maqsadli kapital o'rtasidagi farqning taksiminan 29% ini yopadilar. Bu raqamdan kelib chiqib, banklarning yarimlanish davri (half-life) - real va maqsadli kapital o'rtasidagi farqning yarmini yopish uchun ketadigan vaqt - o'rtacha 2 yilni tashkil etadi. Biroq, bu ko'rsatkich mamlakatlar kesimida jiddiy farqlanadi: sekin moslanuvchi banklar uchun 4.26 yil, tez moslanuvchilar uchun esa atigi 1.15 yil. Bu geterogenlik moslashuv tezligiga ta'sir qiluvchi institutsional omillarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Moslashuv tezligini belgilovchi asosiy omillar quyidagilar. Birinchidan, qattiqroq kapital talablari banklarni tezroq moslashishga majbur qiladi, chunki regulativ cheklovlardan chetlanish jarimalar va boshqa sanksiyalarga olib keladi. Ikkinchidan, yaxshi nazorat axborot asimmetriyasini kamaytirib, tashqi moliyalashtirish xarodjatlarini pasaytiradi, natijada banklar kapital jalb qilish orqali tezroq moslashishi mumkin. Uchinchidan, rivojlangan kapital bozorlari aktsiyalar emissiyasi va savdosini osonlashtirib, banklarga tez va samarali kapital jalb qilish imkonini beradi. To'rtinchidan, yuqori inflyatsiya moliyaviy moslashuvchanlikni pasaytirib, banklarning rejalashtirish qobiliyatini zaiflashtiradi va moslashuvni sekinlashtiradi. Beshinchidan, inqiroz davrlarida supervizorlar va boshqa steykholderlar (kreditorlar, depozitorlar, investorlar) tomonidan yaqin nazorat banklarni zudlik bilan moslashishga majbur qiladi.

Quyidagi jadval shuni ko'rsatdiki, institutsional muhit banklarning kapital menejmenti samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan iqtisodiyotlarda (Evropa, AQSh) qattiq regulativ nazorat, yaxshi nazorat va rivojlangan moliyaviy bozorlar banklar ga tezroq moslashish imkonini beradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu omillarning zaifligi moslashuvni sekinlashtiradi va kapital menejmentini murakkablashtiradi. Shuning uchun, O'zbekiston uchun faqat kapital talablarini oshirish yetarli emas - bunga qo'shimcha nazorat sifatini yaxshilash, kapital bozorlarini rivojlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash zarur.

5-jadval

Moslashuv tezligiga ta'sir etuvchi omillar⁵

Omil	Moslashuv tezligiga ta'sir	Iqtisodiy mexanizm	Empirik dalil
Qattiqroq kapital talablari	Tezlashtiradi (+)	Regulyativ bosim, sanksiyalar xavfi	Yuqori minimal kapital talablari +0.12-0.18 moslashuv tezligiga
Yaxshi nazorat	Tezlashtiradi (+)	Axborot asimmetriyasi kamayishi	Yuqori nazorat sifati +0.08-0.14 moslashuv tezligiga
Rivojlangan kapital bozorlari	Tezlashtiradi (+)	Tashqi moliyalashtirish xarodjatlari pasayishi	Bozor kapitalizatsiyasi +10% → moslashuv +0.05
Yuqori inflyatsiya	Sekinlashtiradi (-)	Moliyaviy moslashuvchanlik pasayishi	inflyatsiya +5% → moslashuv -0.06-0.10
Inqiroz davrlari	Tezlashtiradi (+)	Yaqin nazorat, tez harakat zarurligi	Inqiroz vaqtida moslashuv tezligi +0.15-0.25
Bank hajmi	Noaniq	Katta banklar: manevr osonroq, kichik banklar: taqiqlashlar ko'p	Katta banklar odatda tezroq
Foyda darajasi	Tezlashtiradi (+)	Ichki manbalar mavjudligi	Yuqori ROA banklar +0.08-0.12 tezroq

Tadqiqotning yana bir muhim xulosasi shuki, kichik banklar kapitalsiz holatda aktivlarni sotishga ko'proq moyil, katta banklar esa kapital jalb qilishni afzal ko'radilar. Bu bank hajmi va kapital menejmenti strategiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Kichik banklar uchun kapital bozorlariga kirish cheklangan va aktivlarni sotish ko'pincha yagona tez yo'l. Katta banklar esa aktsiyadorlar bazasi keng, obro' yuqori va moliyaviy bozorlarga oson kira oladilar, shuning uchun ular aktivlarni saqlab, kapital emissiyasi orqali moslashadilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2025-2026 yillarda bank kapitalini boshqarish amaliyotida bir necha yangi tendentsiyalar kuzatilmoqda. Birinchi muhim tendentsiya - geosiyosiy xavflarni kapital rejalashtirishga integratsiya qilish. YeTsB 2025 yil dekabrda 110 ta bankning geosiyosiy xavflarni boshqarish qobiliyatini baholashga kirishdi. Bu "teskari stress-test" (reverse stress test) usulini qo'llash bilan bog'liq: banklar geosiyosiy shoklar (savdo urushlari, sanksiyalar, mintaqaviy konfliktlar) qanday sharoitda ularning kapitaliga tanqidiy ta'sir ko'rsatishini aniqlashlari kerak. Bu yondashuv an'anaviy stress-testlardan farq qiladi, chunki banklarning o'zlari o'z zaifliklarini aniqlashlari zarur.

Ikkinchi tendentsiya - iqlim va tabiat bilan bog'liq xavflarning kapital talablariga bosqichma-bosqich kirishi. YeTsBning 2026-2028 yillar uchun nazorat ustuvorliklarida iqlim xavflarini boshqarish alohida yo'nalish sifatida belgilangan. Banklar kredit portfellarini iqlim xavflari nuqtai nazaridan baholashlari, yuqori karbon emissiyali sektorlarga ekspozitsiyani cheklashlari va iqlim stress-testlarida ishtirok etishlari zarur.

⁵ De Jonghe va Öztekin (2015), BIS va YeTsB hisobotlari asosida tuzilgan

Kelajakda bu banklar uchun qo'shimcha kapital buferlari yoki iqlim xavflari bo'yicha Pillar 2 qo'shimchalariga olib kelishi mumkin.

Uchinchi tendentsiya - raqamlashtirish va operatsion barqarorlik masalalariga ko'proq e'tibor. YeTsB 2025 yilda banklarning sun'iy intellekt (AI) va generativ AI dan foydalanishini monitoring qildi. Regulyator larning asosiy tashvishi shundaki, AI texnologiyalari yangi operatsion xavflar (model xatolari, algoritmik noadolatlik, kiberxavfsizlik) keltirib chiqarishi mumkin. Supervizorlar banklardan AI tizimlari uchun mustahkam boshqaruv choralari, risk menejmenti freymvorklarini va "tashrix qilish mumkinligi" (explainability) talablariga rioya qilishlarini talab qilmoqdalar. Kelajakda operatsion xavflar uchun kapital talablari AI texnologiyalaridan foydalanish darajasiga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin.

To'rtinchi tendentsiya - antisikl kapital buferining (Countercyclical Capital Buffer, CCyB) faol qo'llanishi. Ayrim Yevropa mamlakatlari 2025 yilda CCyB darajasini oshirish boshladilar, bu iqtisodiyotning "qizib ketishi" va kredit xavflarining ortishidan xabardor qiladi. Masalan, Germaniya, Norvegiya, Chexiya kabi mamlakatlar CCyB ni 1-2% ga ko'tardilar. Bu makroprudentsial siyosat vositasi iqtisodiy bum davrlarida banklar kapitalini zaxiralashga va inqiroz paytida bu zaxiralarni ishlatishga imkon beradi. CCyB ning qo'llanishi banklar uchun kapital rejalashtirishni yanada dinamik va antisikl qilishni talab qiladi.

Beshinchi tendentsiya - nazoratning risk-asosli yondashuvini kuchaytirish va samaradorlikni oshirish. YeTsB 2025 yilda nazorat reformasini davom ettirib, SREP jarayonini tezlashtirdi va xujjatlarni soddalashtirdi. Yangi Pillar 2 Requirement metodologiyasi (2026 yildan) shaffofroq bo'lib, banklar uchun tushunishni osonlashtiradi. Shuningdek, supervizorlar off-site (masofadan) monitoringga ko'proq e'tibor berib, on-site (joyida) tekshirishlarni kamaytirmoqdalar. Bu texnologiya rivojlanishi (big data, AI) tufayli mumkin bo'lmoqda va nazorat samaradorligini oshirib, banklar uchun yukni kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Modigliani, F., & Miller, M.H. (1958). The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment. *The American Economic Review*, 48(3), 261-297.
2. Admati, A. R., & Hellwig, M. (2019). *The Bankers' New Clothes: What's Wrong with Banking and What to Do About It* (Expanded edition). Princeton University Press.
3. Admati, A., & Hellwig, M. (2013). *The Bankers' New Clothes: What's Wrong with Banking and What to Do about It*. Princeton University Press.
4. Acharya, V.V., Mehra, H., & Thakor, A.V. (2016). Caught Between Scylla and Charybdis? Regulating Bank Leverage When There Is Rent Seeking and Risk Shifting. *Review of Corporate Finance Studies*, 5(1), 36-75.
5. Berger, A.N., & Udell, C.H.S. (2013). How Does Capital Affect Bank Performance During Financial Crises? *Journal of Financial Economics*, 109(1), 146-176.
6. Hanson, S.G., Kashyap, A.K., & Stein, J.C. (2011). A Macroprudential Approach to Financial Regulation. *Journal of Economic Perspectives*, 25(1), 3-28.
7. Hanson, S. G., Kashyap, A. K., & Stein, J. C. (2018). Monetary policy and long-term real rates. *Journal of Financial Economics*, 129(2), 429-448.

8. **De Jonghe, O., & Öztekin, Ö.** (2015). Bank capital management: International evidence. *Journal of Financial Intermediation*, 24(2), 154–177.
9. **Adrian, T., & Shin, H. S.** (2014). Procyclical leverage and value-at-risk. *The Review of Financial Studies*, 27(2), 373–403.
10. **Adrian, T., & Shin, H. S.** (2019). Leverage cycles and the anxious economy. *American Economic Review*, 109(7), 3367–3400.
11. **Drehmann, M., & Tsatsaronis, K.** (2014). The credit-to-GDP gap and countercyclical capital buffers: questions and answers. *BIS Quarterly Review*, March, 55–73.
12. **Drehmann, M., & Tsatsaronis, K.** (2020). Measuring the effectiveness of macroprudential policy: The countercyclical capital buffer. *Journal of International Money and Finance*, 106, 102209.
13. **Gropp, R., & Heider, F.** (2010). The determinants of bank capital structure. *Review of Finance*, 14(4), 587–622.
14. **Gropp, R., & Heider, F.** (2018). Bank capital ratios and competition: A theoretical approach. *European Economic Review*, 110, 76–100.
15. IFC MSME Finance Gap Report 2025
16. Bank for International Settlements (BIS) Statistics, 2024
17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti www.cbu.uz

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

